

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZILIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

“XALQARO TURIZM” FAKULTETI

Qo'lyozma huquqida

UDK: 65 9 (2)301

NOMOZOV ABDUVOHID ABDURAZZOQ OG'LI

**TOVARLARNING TIF TN BO'YICHA KODLARINI TO'G'RI
BELGILASH VA UNING IQTISODIY-IJTIMOIIY AHAMIYATI**

**70411301– Bojxona ishi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)
mutaxassisligi bo'yicha**

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTASIYA


Ilmiy rahbar:
Phd. A.Yuldashev

TOSHKENT – 2023

Magistrlik dissertasiyasi "Biznes boshqaruvi va logistika" kafedrasida
дастлабки ҳимоядан ўтган.


35 -sonli bayonnoma " 10 " 05 2023 y.

Kafedra/mudiri: prof. Gafurov U.V.


imzo


23.05
sana

Ilmiy rahbar: i.f.f.d., Phd. A.Yuldashev


imzo

19.05
sana

Talaba: A.Nomozov


imzo

18.05
sana

ANNOTATSIYA

O'zbekiston Respublikasi bojxona organlariga yuklatilgan asosiy vazifalardan biri, bojxona ishining tarkibiy qismi bo'lgan tashqi iqtisodiy faoliyatda tovarlarni tasniflash va kodlash bo'yicha Tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasini (keyingi matnlarda TIF TH) yuritish hisoblanadi. Tovarlarining narxini aniqlash va boj to'lovlarini to'g'ri hisoblash va undirish tovarlarning TIF TN ga ko'ra to'g'ri tasniflanganligiga bog'liq bo'ladi. Bojxona xodimlaridan tovarlarni tasniflashning nazariy qoidalarini va bu qoidalarni amaliyotga tatbiq etishni mukammal bilish talab etiladi.

Bizga ma'lumki, bojxona xodimlari o'zlariga yuklatilgan vazifalarni bajarish jarayonida turli xil mahalliy va xorijiy mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovar-moddiy boyliklarini, transport vositalarini va intellektual mulk, ya'ni aqliy mehnat mahsuli bo'lgan turli xil ko'rinishdagi tovarlarning bojxona ko'rigini va rasmiylashtiruvini amalga oshiradi. Bojxona xodimlari tomonidan birinchi navbatda, tovar qaerda va qaysi mamlakatda ishlab chiqarilganligi, tovarning vazifasi nimadan iboratligi, tovarning inson salomatligiga zarar yetkazmasligi, atrof-muhitga xavfsizligi kafolatlanganligi, oxir-oqibatda uning tarkibi va narxi urganiladi. Ushbu ma'lumotlar, albatta, tovar yorliqlarida va tovarga tegishli yuk kuzatuv xujjatlari (nakladnoy, invoys, hisob-faktura, shartnoma, sertifikatlar va boshqalarda keltirilgan bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach davlat organlari tizimida mustahkam o'rin egallagan bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladigan tovarlarning TIF TN to'g'ri aniqlash va uni huquqiy asoslarini tahlil qilish, mazkur soha to'g'risidagi qonunchilikni o'rganib chiqish, tadqiqotning maqsadi qilib belgilandi.

KALIT SO'ZLAR

Tashqi iqtisodiy faoliyat tashqi iqtisodiy siyosat, bojxona rasmiylashtiruvi, qoidalar, pozitsiya, podpozitsiya, podsubpozitsiya, bojxona nazorati va rasmiylashtiruvi soddalashtirish, bojxona hududiga kirib kelgan tovar.

SUMMERY

One of the main tasks assigned to the customs authorities of the Republic of Uzbekistan is to maintain the Foreign Economic Activity Goods Nomenclature (hereinafter TIF TH) for the classification and coding of goods in foreign economic activity, which is a component of customs work. Determining the price of goods and the correct calculation and collection of customs duties depends on the correct classification of goods according to the TIF TN. Customs officers are required to have a thorough knowledge of the theoretical rules of classification of goods and the practical implementation of these rules.

As we know, in the course of performing the tasks assigned to them, customs officials carry out customs inspection and clearance of goods, vehicles and intellectual property, i.e. goods of various forms, produced in different domestic and foreign countries. First of all, the customs officials examine where and in which country the goods are produced, what is the function of the goods, whether the goods do not harm human health, the safety of the environment is guaranteed, and finally, its composition and price. This information will be included in the product labels and the cargo tracking documents related to the goods (invoice, invoice, contract, certificates, etc.).

The goal of the research is to correctly determine the TIF TN of goods and analyze its legal basis, which is carried out by the customs authorities, which have a strong place in the system of state bodies after the Republic of Uzbekistan gained independence, to study the legislation in this field, the purpose of the research was set as

KEY WORDS

Foreign economic activity, foreign economic policy, customs clearance, rules, position, subposition, subsubposition, simplification of customs control and clearance, goods entering the customs territory.

MUNDARIJA

ANNOTATSIYA.....	3
Keltirilgan jadvallar ro'yxati.....	6
Keltirilgan rasmlar ruyxati.....	7
I – BOB. KIRISH.....	8
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	9
1.2. Tadqiqot maqsadi va vazifalari.....	10
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	10
1.4. Tadqiqot maqsadi va predmeti.....	11
1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	11
1.6. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	12
II-BOB. ADABIYOTLAR SHARXI.....	13
2.1. Kirish.....	12
2.2. Ma'ruzaga oid ilmiy-nazariy qarashlar.....	13
2.3. Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	26
III-BOB. METODOLOGIYA.....	33
3.1. Tadqiqot dizayni.....	33
3.2. Ma'lumotlarni to'plash	33
3.3. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar.....	33
3.4. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar.....	34
3.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	34
3.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	35
IV-BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....	36
4.1. Tovarlarni TIF TN sini aniqlashda bojxona ekspertizasini ahamiyati.....	36
4.2. Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish to'g'risidagi xalqaro konvensiyaga O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi munosabati bilan tashqi iqtisodiy faoliyatni huquqiy tartibga solish.....	46
4.3. Jahon savdosi xavfsizligini oshirish va soddalashtirishda butunjahon bojxona tashkiloti hadli standartlarining roli va ahamiyati.....	55
V-BOB. XULOSA.....	72
5.1. Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi.....	72
5.2. Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari	72
5.3. Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar	73

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekistonning ichki bozorlariga ko'plab xorijiy mamlakatlarda ishlab chiqarilayotgan minglab turdagi tovarlar import qilinmoqda. Ichki bozorlardagi barcha tovarlarning sifati kafolatlanganligi to'g'risida sertifikatga ega, deb xulosa qilib bo'lmaydi. Tovar va xizmatlarning sifatini kafolatlash - eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, import qilinayotgan tovarlarning 8-10% davlat sinov laboratoriyalarining natijalariga ko'ra, davlat standarti va sanitariya talablariga mos kelmasligi aniqlangan. O'zbekiston bozorlarida ham qalbaki spirtli ichimliklar, sariyog, kolbasa va qandolat maxsulotlari, choy, kofe, poyabzal, kosmetika va parfyumeriya, maishiy texnika anjomlari kabi ko'plab tovarlarni uchratish mumkin. Ushbu qalbaki tovarlarni aniqlash usullaridan biri, tovarlarning yorlig'ida iloji boricha tovar haqida kam ma'lumotlar beriladi.

Barcha tovarlarning o'ramida shtrix kodi ko'rsatiladi, biroq bu yerda ham qalbakilik ishlatilmoqda, bizning iste'molchilar shtrix kod haqida to'liq ma'lumotga ega emasligini inobatga olib, ayrim tovarlarda shtrix kod haqidagi ma'lumotlar jadvalida mavjud bulmagan raqamlardan foydalanganliklari namoyon bo'lmoqda. Ayrim holatlarda ishlab chiqaruvchilar iste'molchilarni chalg'itish maqsadida nufuzli firma nomlarini ularning nomiga hamohang bo'lgan nomlarga o'zgartirgan holda mahsulotlarni bozorga chiqaradilar.

1.1. Magistrlik dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Uyg'unlashtirilgan tizimda tovarlarni ishlab chiqarish texnologiyasi yoki xalqaro savdo tarkibidagi o'zgarishlarni hisobga olish ahamiyatini anglagan holda, Bojxona hamkorlik Kengashi tomonidan tashkil etilgan Uyg'unlashtirilgan tizim qo'mitasi tomonidan ushbu sohada amalga oshirilgan ishlarga e'tibor bergan holda, yuqorida ko'rsatilgan nomenklatura Konventsiyasi ushbu maqsadlarning bir qismiga erishish uchun samarali vosita ekanligini isbotlaganligi sababli, zarur natijalarga erishishning eng yaxshi vositasi yangi xalqaro konventsiya tuzish ekanligini hisobga olib, quyidagilar to'g'risida kelishib oldilar:

1.2. Magistrlik dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.